

BADIY TA'LIMDA ADABIY MEROSINING O'RGANILISHIDA IS'HOQXON IBRAT MUZEYI FAOLIYATI

FERUZA RAHMONTALIYEVNA HASANOVA

o'qituvchi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-11>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqi madaniyati, ilm-fani, san'ati rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan ma'rifatparvar shoir, yozuvchi, tilshunos va tarixshunos olim, ilk o'zbek noshiri sifatida tanilgan Is'hoqxon To'ra Ibratning hayoti va ijod yo'li hamda bugungi kunda faoliyat yuritayotgan Is'hoqxon To'ra Ibrat muzeyi haqida so'z boradi. Maqola ilmiy jihatdan aniq ma'lumotlarga asoslangan, ijodiy, badiiy yondashuvdagi o'rni kabi masalalar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Madrasa, peshtoq, hujra, minor, muzey, eksponat, ekspozitsiya, infokiosk, jug'rofiya, ilmi ximiya, grammatika, risola, pedagog, jadid.

KIRISH

Milliy uyg'onish davrining faol ijokorlaridan biri, serqirra iste'dod sohibi, zabardast tilshunos, ma'rifatparvar shoir, ilk o'zbek matbaachilaridan biri Is'hoqxon To'ra Ibratning tilshunoslikka oid "Lug'ati sitta al-sina" asari o'ziga xos qimmatga ega. Mazkur asaridan rus tili asosiy o'quv predmetlardan biri sifatida o'qitishga ruxsat olingan "usuli jadid" maktablarida ham foydalanilgan. Ibratning tilshunoslikka oid asarlaridan yana biri "Jome' ul-xutut"(Yozuvlar majmuasi) asari yozuvlar tarixiga bag'ishlangan. Asar arab yozuvi tarixi va dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv sistemasi haqidagi ma'lumotlari bilan e'tiborga molikdir. Shuningdek asar husnixat san'atiga oid ilmlar bilan boyitilgan. Ishoqxon Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir ilg'or yangilikdan o'z xalqini bahramand etishga harakat qildi. Ibrat tarixshunos olim sifatida esa o'zbek xalq hayoti va tarixini chuqur o'rganib, tarixiy voqealarga, xon va beklar munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor berib, "Tarixi Farg'ona" asarini yaratadi. Asarda Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyati, ayniqsa, Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxon faoliyati, qipchoq qirg'ini voqealari, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va u keltirgan fojialar haqida ma'lumot beriladi. Ibrat "Tarixi Farg'ona" asarida Farg'ona viloyati tarkibiga kirgan shahar va qishloqlarning kelib chiqish tarixi, geografik joylashuvi, tabiati haqidagi muhim ma'lumotlarni ham bayon etadi. Asar bu jihatdan Boburning "Boburnoma" asarini eslatadi.

ASOSIY QISM

Ibrat ma'rifatparvar serqirra adibdir. Ibratning vatanparvar, fidoiy inson ekanligini o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbati hamda o'z yurtdoshlarini o'qitib, ilmi inson bo'lishi uchun qilgan xayrli ishlari orqali his qilish mumkin. Ibrat o'zining

1926 yilda yaratgan "Tarixi madaniyat" asarida keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo'lmish "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini yaratgani haqidagi ma'lumotni yozib qoldirgan/

Ibrat nazmiy ijodida o'z fikru- qarashlarini, orzu-umidlarini sodda, lekin ta'sirli qilib ifoda etgan. Uning she'rlari o'zining mazmuni va ilgari surgan g'oyalarga ko'ra juda xalqchil, insonparvar xarakterga ega. Ibrat hayotda yuz berayotgan ilm-fan yutuqlarini o'z she'rlarida ham aks ettira olgan hozirjavob shoiridir. U o'z lirikasida hayot haqiqatini rangin bo'yoqlarda tasvirlab, ularga xalqona ohang baxsh eta oldi. Ishoqxon Ibrat lirikasi sodda va ravonligi, vaznlarining o'ynoqiligi, tasvirlarning o'ziga xos yuksak badiiyat bilan yaratilganligi jihatidan ahamiyatlidir. Ibrat lirikasi xalqona ohangga egaligi bois xuddi Ahmad Yassaviy, Navoiy, Atoiy, Ogahiy, Mashrab g'azallari kabi san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan, masalan, Mashrabning mashhur "Ko'rgoli keldim" g'azali kabi yengil uslubda yozilgan Ibratning murabba' janridagi she'ri ko'plab hofizlarimiz tomonidan kuylanganda dillarimiz musiqiy ravonlikdan yayraydi:

O'z jonini yurt istiqboli yo'lida fido qilishga qodir ma'rifatli, ziyoli vatandoshlarimiz qatori Ibrat ham 1937 yilning ilk bahorida qamoqqa olinadi. O'zbek ziyolilari yostig'ini quritgan qatag'onning eng dahshatli kezlari, ya'ni 1937 yilda butun umrini o'z xalqining ma'rifati, istiqboli uchun baxsh etgan 75 yoshli nuroniy shoir Andijon turmasidagi jismoniy, ruhiy azoblarga bardosh bera olmaydi va turmada ikki oy yotib, hayotdan ko'z yumadi. Qatag'on qurboni bo'lgan ziyolilarimiz qatorida Ishoqxon Ibrat ham 1959 yilda oqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 -yil 13 -apreldagi qarori bilan Is'hoqxon Ibrat xotirasini abadiylashtirish maqsadida Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon Ibrat memorial majmua bunyod etildi.

Is'hoqxon Ibrat majmuasi —Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida joylashgan majmua To'raqo'rg'on tumanidagi soy bo'yida tashkil qilingan bo'lib, maydoni 2 gektarni tashkil qiladi. Uning tarkibida muzey, bog', bosmaxona, maktabgacha ta'lim muassasasi, xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan ijod maktabi va maktab yotoqxonasi o'rin olgan. G'oyibnazar qozi madrasasi me'moriy yodgorlik binosi rekonstruksiya qilinib, Ibrat muzeyi tashkil etilgan. Xalq amaliy san'ati va badiiy xunarmandchilik markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Majmua bitganidan bir necha yil so'ngra maktab qarshisida Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tashkil etildi.

Muzey joylashgan bino 1860-yil G'oyibnazar qozi farmoni bilan toliblar ilm olishi uchun mo'ljallangan madrasa sifatida Mulla Qirg'iz ibn Ibrohim tomonidan qurilgan. Ibrat xuddi shu yerda qozi lavozimida o'z faoliyatini yuritgan. Ushbu madrasaning old fasadida, ya'ni kirish eshigining yuqori qismida madrasani o'sha davrdagi yetuk me'mor usta Mulla Qirg'iz qurganligi yozib qo'yilgan. Ushbu madrasaga asos solgan va uning qurilishiga katta mablag' sarf qilgan G'oyibnazar XIX asrning so'nggi choragidan boshlab, XX asrning boshlariga qadar To'raqo'rg'onda qozilik qilgan saxovatli, ilm ma'rifatlil, xalqparvar inson edi. O'sha paytlardagi yuz bergan ocharchilik yillarida ko'pchilikning qornini to'ydirib, yetimlar boshini silab, homiylik qilib kelgan. G'oyibnazar qozi Xudo rizosi uchun xoli bir madrasa qurishga qaror qiladi va bu ishni o'sha davrning mashhur va taniqli me'mori usta Mulla Qirg'iz ibn Ibrohim me'morga topshiradi. G'oyibnazar qozi madrasasi — to'rtburchak tarhli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlidan iborat, sharqiy tomondagi hujralar 2 qavatli; bosh tarzi peshtoqli, uning ikki tomonidan 2-qavat ravoqlari ko'zga tashlanib turadi; burchaklariga sirti g'ishtin naqshlar bilan bezatilgan mezanali minoralar ishlangan. Bino burchaklaridagi hujralardan darsxona sifatida foydalanilgan, darsxonalar gumbazi qovurg'ali. Madrasaning kirish eshigining yuqori qismiga arab yozuvida binoning bunyod etilgan vaqti va me'mori, ta'mirlangani haqida „1311-yil (1893-yil) amali Mulla Qirg'iz, me'mor, 1384-yil (1964-yil) ta'miri soniy usta Fozil Namangoniy“... deb bitilgan. Mulla Qirg'iz madrasasi qurilishida (1910-yil) qatnashgan usta Fozil Ne'matulla o'g'li Namangoniy o'g'illari va shogirdlari bilan binoni ta'mirlagan; hovli usti yopilib, sahna va zallar barpo qilingan.

Bino ta'mirlanib muzey ekspozitsiyasi uchun ixtisoslashtirilgan. Bino isitish tizimi, kondisionerlar va xavfsizlik video kuzatuv tizimi bilan ta'minlangan.

Ibrat muzeyi binoga kiraverishdagi o'ng va chap tomon xonalarda joylashgan bo'lib, bino ichida ikkinchi muzey ham mavjud. Bu muzey "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" deb nomlanadi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat muzeyi ekspozitsiyasi bo'limlari:

1. Is'hoqxon To'ra Ibrat hayoti va shaxsiy buyumlari

2. Is'hoqxon To'ra Ibrat ilmiy salohiyati

3. Is'hoqxon To'ra Ibrat ijod xonasi

Dastlabki xonada Is'hoqxon To'ra Ibratning tug'ilishi, yoshlik davrlari, hayot yo'llari davomida qilgan ishlari haqida ma'lumot beruvchi ekspонатlar joylashtirilgan. Bundan tashqari u yerda Ibratga bag'ishlab yozilgan kitoblar, o'sha davrga xos jihozlar, samovarlar, Ibrat hayoti davomida ishlatgan buyumlar hamda o'sha davrda boshqa shaxslar tomonidan foydalanilgan buyumlar, Ibratning shaxsiy buyumlari, kiyimlari, choponlari, do'ppilarini ko'rishimiz mumkin. Birinchi zaldan Ibrat hayoti haqida umumiy va qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Muzeyga kiraverishda Ibrat haqida qisqacha ma'lumotlar yozilgan. Ibrat oddiy oilada tug'ilgan bo'lsada, uning ota-onasi bilimli, zukko, o'z davrining ma'rifatparvar insonlari bo'lishgan. Hattoki Ibratning onasi

mahalladagi boshqa ayollarga o'z bilganlarini o'rgatib, ularga ta'lim bergan.

Ibrat juda madaniyatli shaxs bo'lib, u musiqaga ham qiziqqan. Muzeyda uning cholg'u asboblari ham ko'rish mumkin. U o'zi yozgan she'rlarni kuyga solib, xirgoyi qilib madaniy hordiq olgan. Ushbu zaldagi monitorida Ibrat hayoti yoritilgan fotosuratlarini, turli videoroliklarni ko'rishimiz mumkin.

Muzeyda nafaqat Ibrat tomonidan yig'ilgan kitoblar, balki o'zining qo'lyozma kitoblari ham mavjud bo'lib, Ibrat juda ham chiroyli husnixat sohibi bo'lganligini ushbu kitoblarda ko'rishimiz mumkin. Muzeyda "Matbaayi Is'hoqiya"da chop etilgan asl nusxadagi jurnal va gazetalar ham mavjud. Is'hoqxon To'ra Ibratning Arabistonga sayohati davomida buyurtma asosida yasattirib olib kelgan buyumlari, laganlar ham muzeyning eng noyob va qadrli ekspонатlari qatorida saqlanib kelinmoqda. Ibrat G'oyibnazar qozi madrasasida qozilik lavozimida ishlagan paytidagi rasmiy hujjatlari ham muzeydan o'rin egallagan.

Muzeydagi ma'lumotlarga ko'ra Ibrat 14 ta davlatda sayohatda bo'lgan va ushbu davlatlardan olib kelingan sovg'alar, suvinerlar ham muzeyda saqlanadi. Ushbu buyumlar Ibrat muzeyi tashkil etilayotgan paytda uning yaqin qarindoshlari, oila a'zolari tomonidan muzeyga taqdim etilgan. Xonaning burchagida haykaltaroshlar tomonidan yasalgan qo'lida kitob bilan tasvirlangan Ibrat haykalini ko'rishimiz mumkin. Muzeyga yondosh qilib qurilgan Ibrat xiyobonida ham Ibratning baland haykali bor, arkali ayvonda Ibratning she'rlari yozib chiqilgan.

Muzey ekspozitsiyasi media ma'lumot beruvchi zamonaviy infokiosklar va televizorlar bilan jihozlangan. Ular yordamida tashrif buyuruvchilar to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

Ikkinchi, ya'ni o'ng tomondagi xonada Ibratning ilmiy faoliyatiga oid bo'lgan buyumlar joylashgan. Orenburg shahridan litografiya uskunalarining olib kelish jarayonlari tasvirlangan surat mavjud. Ushbu surat rassom Tohirjon Ashurov qalamiga mansub bo'lib, muzeyga sovg'a qilingan. Vitrinada Ibrat hovlisining, bog'ining qo'lda chizilgan variantini ko'rishimiz mumkin.

Ibrat boshqa davlatlardan o'z bog'i uchun turli ko'chatlar keltirgan va bog'ning maketi muzeyda saqlanadi.

Muzeyda Ibratning pedagogik faoliyati ham aks ettirilgan juda ko'plab fotolar mavjud. "Usuli Savtiya" nomli maktabda o'qitilgan darsliklar, ilmiy kitoblar, jug'rofiya, adabiyot, ona tili, ilmi ximiya darsliklari hamda Ibratga tegishli bo'lgan grammafon, kerosin chiroq mavjud.

So'nggi xona tashqi hovlida joylashgan Ibratning ramziy ijod xonasi hisoblanadi. Bu xona Ibrat ijodiga bag'ishlangan haqiqiy o'sha davrning milliy xonalari ruhini berib turadi. Xonada milliy buyumlar, cholg'u asboblari, shaxsiy kiyimlari, samovari, piyolalari, Hindistonda yasattirib olib kelgan O'zbekistondagi ilk toksiz muzlatgichi, o'sha davr gilamlari bilan alohida ahamiyatga ega sanaladi.

XULOSA

Bugungi kunda muzey sohasida ko'pgina ishlar bajarilmoqda. Is'hoqxon To'ra Ibrat muzeyida ham bir qancha o'zgarishlar olib borildi. Jumladan; Ibratning butun hayoti dunyoga kelganidan, umrining so'nggi kunlariga qadar bo'lgan davrni xronologik tartibda davrma-davr aks ettirdi. Ekspozitsiyalarni joylashtirishda ham xronologik tartibga rioya etilgan.

Taklif va muloxazalar:

Bir qator masalalardan kelib chiqib maqolada quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- muzeyning virtual ko'rinishi va veb saytini yaratish;
- muzeyga ko'proq turistlarni jalb qilish;
- ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni ko'chaytirish;
- muzey xodimlari savodxonligini oshirish;
- boshqa muzey xodimlari bilan tajriba almashishga imkon yaratish;
- audiogidlar va ekskursionlar ishini jahon talablari darajasiga moslashtirish;
- ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yanada oshirish, ularni xalqaro talablar darajasiga ko'tarish maqsadida muzey xodimlarini malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etish.

Muzeylar mamlakat turizmini rivojlantirishda katta hissa qo'shadi. Sababi hozirgi kunda O'zbekiston uchun turizm sohasini rivojlantirish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasini muzeylarda takomillashtirish uchun internet tarmoqlarida muzey saytlarini yaratish, flayerlar chop etib tarqatish, adiblarning tavallud kunlarida muzeyda ijodiy uchrashuvlar o'tkazishni faol tashkil etish kerak. Turgan gapki, har bir turist internet orqali bemalol, mehmonxona, restoran va boshqa ma'lumotlarni ola oladi. Agar muzeyni ham internet orqali reklama qila

olsak, uni har kuni yangilab, ma'lumot va fotolar bilan boyitib tursak, tabiiyki sayt o'z o'zidan kengaya boshlaydi va o'z foydalanuvchilari ham ko'paya boradi. Turistlar ham bemalol qiynalmasdan topa olishi, tushunishi uchun albatta xorijiy tilda ham ma'lumotnoma kiritish kerak va shunda maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Yetuk marifatparvar inson siymosini o'zida mujassam qilgan Is'hoqxon To'ra Ibrat ijodi davomida bir umrlik o'lmas iz qoldirib, avlodlar xotirasidan mangu ulug' xotiralar va yorqin tassurotlar qoldira olgan. Uning mazmunli va serqirra hayot yo'llarida qilgan ezgu ishlarini o'rganadigan bo'lsak, kelajak avlodni ijodga va adabiyot san'atiga qiziqishi va intilishlarini oshiruvchi ijod mahsullari anchagina ko'zni quvnatadi. Ibrat hayot yo'li juda sermazmun, har birimiz uchun ibratli yo'l hisoblanadi. Har sohada yetuk shaxs bo'lgan Ibrat hayotini va ijodini o'rganish biz uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2008 yil 12 sentyabr/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil. № 37-38.
2. "Haq so'z" Turkiston viloyatining gazetasi. 1908-yil, 56-son
3. "O'zbek sovet ensiklopediyasi" 12-tom. - T 1979.
4. <https://daryo.uz/2018/05/18/fotoreportaj-namangan-viloyati-toraqorgon-tumanidagi-ishoqxon-ibrat-muzeyi>
5. <https://uz.wikipedia.uz>